

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik  
akademiyasi Islomshunoslik fakulteti  
Islomshunoslik yo‘nalishi 3-kurs talabasi  
Sadirova Mubina Shavkatjon qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirishning konseptual asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyalari va zamonaviy xalqaro standartlarga muvofiq ta’lim sifatini oshirish yo‘nalishlari o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** *Diversifikatsiya, klassifikator, islohotlar, konsepsiya, modernizatsiya, sifat, raqobatbardoshlik, innovatsion ta’lim, PISA, ECTS, oliy ta’lim, xalq ta’limi.*

**Аннотация:** В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются концептуальные основы модернизации и развития системы образования в Республике Узбекистан. Рассматриваются масштабные реформы, реализованные за годы независимости, концепции развития до 2030 года, а также основные направления повышения качества образования в соответствии с современными международными стандартами.

**Ключевые слова:** *Диверсификация, классификатор, реформы, концепция, модернизация, качество, конкурентоспособность, инновационное образование, PISA, ECTS, высшее образование, народное образование.*

**Abstract:** This article provides a scientific and theoretical analysis of the conceptual foundations for the modernization and development of the education system in the Republic of Uzbekistan. It examines the large-scale reforms implemented during the years of independence, the development concepts up to 2030, and the key directions for improving the quality of education in line with modern international standards.

**Key words:** *Diversification, classifier, reforms, concept, modernization, quality, competitiveness, innovative education, PISA, ECTS, higher education, public education.*

XXI asr bosqichida global rivojlanish jarayonlari ta’lim sohasiga tubdan yangilanish va tizimli ravishda qayta tashkil etishni taqozo qilmoqda. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston ta’lim sektorini modernizatsiyalashni milliy siyosatning eng muhim strategik maqsadlaridan biri deb belgilab kelgan. Davlat rahbariyati tomonidan ta’kidlanishicha, jamiyat taraqqiyotining poydevori, xalqni ulug‘vor etuvchi omil –

fan, bilim va ma'naviy-axloqiy tarbiya hisoblanadi. Mamlakatning kelgusi rivoji, unda yashayotgan yoshlarning istiqboli bevosita ta'lim-tarbiya tizimining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil oxiridan boshlab mamlakatni boshqaruviga kelishi ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar jarayonining boshlanishiga sabab bo'ldi. So'nggi yillar mobaynida qabul qilingan ko'plab qonunchilik va me'yoriy-tartibga soluvchi hujjatlar ta'lim tizimini ilg'or yo'nalishda takomillashtirishga huquqiy asos yaratdi.

Ta'lim shaxsga bilim berish, malaka hamda ko'nikmalarni shakllantirish orqali uni hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlashga xizmat qiladigan ijtimoiy jarayon bo'lib, nafaqat bilimlar o'zlashtiriladi, balki tarbiya, dunyoqarash va ijtimoiy mas'uliyat ham rivojlanadi. Zamonaviy talqinda ta'lim faqat o'quv muassasalarida olib boriladigan o'qitish bilan cheklanmay, oila ishlab chiqarish, jamoatchilik institutlari va boshqa ijtimoiy muhitlarda ham uzluksiz ravishda amalga oshadigan ma'lumot va tajriba o'zlashtirish jarayonini qamrab oladi. Ta'lim tizimidagi islohotlar bir qator fundamental tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilishi, milliy-ma'naviy qadriyatlar hamda o'zbek xalqining tarixiy pedagogik tajribasiga tayanish ilmiy-ma'rifiy merosning uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jamiyatning hozirgi ehtiyojlariga mos strategik vazifalar ishlab chiqilib, ularni bosqichma-bosqich joriy etish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash tamoyili ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Ta'lim sohasida shaffoflikni kuchaytirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy etish, aholining ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va ta'lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish (xilma xillashtirish) masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil sentyabr oyida qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining barcha jabhalarini qamrab olgan. Ushbu strategiyada ta'lim sohasi alohida o'rinlardan biri sifatida ajratib ko'rsatildi, xususan aholining talablari va xalqaro ta'lim normalariga javob bera oladigan, sifatli va amaliy ta'lim tizimini vujudga keltirish asosiy missiya etib belgilandi. Strategiyaning samarali amalga oshirilishi uchun bir necha muhim yo'nalishlar rejalashtirilgan. Fuqarolik jamiyatining asosi sifatida, jamiyat a'zolarining intellektual, ilmiy va axloqiy-ma'naviy salohiyatini kengaytirish orqali kelgusi avlodni tayyorlash zarur. Har bir shaxsning individual qobiliyatlari, shaxsiy maqsadlari va kasbiy qiziqishi hisobga olinib, ularning professional o'sishi va rivojlanish uchun imkoniyat yaratish, global iqtisodiy jarayonlarga faol kirisha oladigan, yuqori malakali va ishonchli kadrlarga ega bo'lish orqali mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash va barqarorlashtirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya institutlarini xalqaro standartlar muvofiqlashtirishdan iborat.

Islohotlar natijasida so'nggi olti yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi sezilarli ko'paymoqda. Avval bolalarni maktabgacha qamrab olish 27%

bo‘lgan bo‘lsa, hozir 70% ga oshdi va bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog‘chaga bormoqda. Keyingi bosqichlarda bu raqamni 80% ga yetkazish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tashkil etilishi ko‘zda tutilgan<sup>1</sup>. Maktabgacha tarbiya tizimida davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish maqsadida qulay imkoniyatlar tashkil etildi. Bunday hamkorlik mexanizmi nodavlat bog‘chalari sonining ko‘payishiga hamda ular taqdim etayotgan xizmat turlarining turli xilligiga zamin yaratdi. Qamrov ko‘rsatkichlarini yanada oshirish uchun 600 mingta qo‘shimcha bog‘cha joylari zarurligiga alohida urg‘u berilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” – degan ezgu g‘oya asosida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda<sup>2</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xalq ta‘limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida ustuvor strategik vazifalar ishlab chiqilgan. Dastlabki vazifa mamlakatni 2030-yil boshiga qadar PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash tizimida dunyoning eng rivojlangan 30 ta davlati safiga kiritishdan iborat. Keyingi muhim yo‘nalish uzluksiz bilim berish tizimining mazmuniy jihatini takomillashtirish, mutaxassis kadrlarni shakllantirish, ularni qayta o‘qitish hamda malakasini yuksaltirish hisoblanadi. Navbatdagi vazifa ta‘lim metodologiyasini modernizatsiyalash va o‘quv-tarbiya jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni bosqichli joriy etishni nazarda tutadi. Strategik yo‘nalish umumiy o‘rta ta‘lim muassasalariga ilg‘or axborot-kommunikatsiya vositalari hamda innovatsion dasturlarni tatbiq etishdan iborat. Umumta‘lim maktablarining moddiy-texnik ta‘minotini mustahkamlash va zamonaviylashtirishdir.

Bu dasturda xalq ta‘lim tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rnini yaratish rejalashtirilgan. Maktablardagi malakali oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga ko‘tarildi. Ta‘lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb 4 barobarga oshirildi. Bu 685 mingdan ortiq pedagog kadrlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashga xizmat qildi<sup>3</sup>. Ta‘lim dasturlari va o‘quv-metodik adabiyotlar sohasida ham tubdan o‘zgarishlar joriy etildi. Respublikaning milliy o‘quv dasturiga 2024-yilga kelib to‘la o‘tkazish bo‘yicha mo‘ljallangan chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda. Chet yo‘nalishlari bo‘yicha zamonaviy ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari yangidan ishlab chiqildi. Milliy dasturda yettinchi sinfdan e‘tiboran

<sup>1</sup> Maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 20.12.2025 <https://lex.uz>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xalq ta‘limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-6108-son, 29.10.2020 <https://president.uz/oz/lists/view/6622>

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xalq ta‘limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-6108-son, 2020-yil 29-oktyabr. <https://lex.uz>

geografiya, fizika, kimyo va biologiya fanlari mustaqil o‘quv predmeti darajasida tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Oliy ta’lim sohasida ham chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning natijasida oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 50 foizdan oshishi rejalashtirilgan. Oliy ta’lim muassasalari soni 70 tadan 200 taga yetdi va qamrov darajasi 9 %dan 38 foizga oshdi. Muhim bo‘lgan ish shundaki, oliy ta’lim olish uchun imtiyozli kreditlash tizimi va ayollarga foizsiz kredit ajratish amaliyoti joriy qilindi<sup>4</sup>.

Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar tomonidan jahon oliy ta’lim muassasalarining birinchi 1000 talikka kiritish rejasi ishlab chiqildi. Oliy ta’lim jarayoni to‘liq kredit-modul tizimiga o‘tkazilib, asos sifatida Yevropaning ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) tizimi qabul qilindi. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni ta’lim jarayoniga joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi va ta’lim kreditlash tizimida sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi. 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab barcha oliy ta’lim tashkilotlarida bakalavriatning kunduzgi ta’lim shaklida hamda magistratura bosqichida to‘lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun imtiyozli ta’lim kreditlari ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Davlat tomonidan oliy ta’limga ajratiladigan grantlari soni sezilarli darajada oshirildi. Xususan, umumiy grantlar hajmi 75 foizga orttirilgan bo‘lib, ehtiyojmand oilalardan kelib chiqqan qiz-ayollar uchun davlat grantlarining miqdori ikki baravarga ko‘paytirildi. Bu ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlari va ayollar ta’limiga ruxsat berish maqsadida qabul qilingan.

Professional ta’lim tizimida ham muammoli masalalarni hal qilish ustida ishlash davom etmoqda. Professional ta’lim tizimining modernizatsiyasi doirasida bir qator strukturaviy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mutaxassislik va kasbiy yo‘nalishlarning klassifikatsiyasi hozirgi bozor talablariga muvofiqlashtirilib, xizmat sektorida ishlayotgan kadrlarga qo‘yilgan talablar bilan uyg‘unlashtirilib, ta’lim dasturlari zamonaviy kasbiy mahorat standartlariga asoslangan holda yangilanib bormoqda. Kasbiy ta’lim muassasalarida xalqaro ta’lim tajribasini o‘rganish va joriy etish ham tezlashtirildi va yaqin yillarda 14 ta professional ta’lim markazida xalqaro standartlar asosidagi ta’lim dasturlari tatbiq etilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, professional ta’limni tamomlagandan so‘ng, talabalar uchun ta’limni davom ettirish yo‘llari kengaytirilib, uch yillik kasbiy dasturlar orqali amaliy bakalavriat darajasida malakali kadrlar tayyorlash tizimi o‘rnatilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga o‘qituvchining jamiyatdagi maqomiga bag‘ishlangan alohida modda kiritilib, ushbu moddada “Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. <https://lex.uz>

farovonligi, kasbiy jihatdan o‘shishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi” – deya ta’kidlangan<sup>5</sup>. Bu 685 mingdan ortiq pedagog kadrlarning ijtimoiy mavqeyini mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish va kasbiy o‘shishini ta’minlash imkoniyatini yaratadi<sup>6</sup>.

Ta’lim sohasidagi kadrlar bazasini mustahkamlash bo‘yicha bir qator tizimli ishlar davom etmoqda. O‘qituvchi kadrlarining professional rivojlanishi, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni strategik yo‘nalish sifatida belgilanib, ushbu sohada samarali mexanizmlar o‘rnatildi. O‘qituvchilarning individual qobiliyatlari, ilmiy qiziqishlari va kasbiy yo‘nalishlari e‘tiborga olinib, turli xil ta’lim-tarbiya modullarini tatbiq etish jarayoni faol davom etib, pedagog kadrlari tayyorlash va qayta tayyorlash markazlarini yanada ko‘paytirish va rivojlantirish, ularning boshqaruv tuzilmasini yangilash va ratsionallashtirish tizimli rejaning bir qismi hisoblanadi. Bu tashkilotlarning o‘quv dasturlari va modullarini umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi samarali o‘quv jarayonlari bilan muvofiqlashtirish, hamda o‘quv natijalarini ustalik bilan moslash ustida turli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda taniqli xorijiy universitetlarning filiallarini ochish bo‘yicha faol ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Bu o‘zbek yoshlariga xalqaro darajadagi ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Qo‘shma ta’lim dasturlarini rivojlantirish, talabalar va professor-o‘qituvchilar almashinuvi kengaytirilmoqda. Yurtimizda 28 ta oliy o‘quv yurti QS TOP-1000 talik reytingga kirish uchun da’vogar sifatida qayd etildi<sup>7</sup>.

Ta’lim tizimida hali ham hal etilishi zarur bo‘lgan bir qator muammolar mavjud bo‘lib, keng ko‘lamli qamrovni ta’minlash bilan birga, ta’lim sifatini oshirish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Buning uchun o‘qituvchilar malakasini doimiy oshirish, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash zarur. Kadrlar muammosida ayrim hududlarda malakali pedagog kadrlar yetishmasligi kuzatilib, buning uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, o‘qituvchilarning ijtimoiy maqomini yanada oshirish va rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanganligi ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyat natijalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida, xususan 2016-yildan keyin amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar ta’limning barcha darajalarida sifat va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz tizimda qamrov darajasi orttirildi, pedagoglarning malakasi va ijtimoiy maqomi mustahkamlandi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy etildi. Oliy ta’limda kredit-modul tizimi va ECTS standartlariga moslashuv,

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.[Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023 – B. 12.

<sup>6</sup> M.M.Murtozayeva. Umumiy Pedagogika. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2024. – B. 19.

<sup>7</sup> <https://oliygoh.uz>

akademik mustaqillikning kuchaytirilishi, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish ta'lim jarayonini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishga xizmat qildi. Professional ta'lim tizimida esa kasbiy standartlarga mos mutaxassislar tayyorlash va amaliy bakalavriat yo'nalishlarini rivojlantirish orqali kadrlar salohiyati oshirildi. Ta'lim sohasidagi strategik islohotlar – Milliy o'quv dasturini modernizatsiya qilish, PISA-2030 maqsadlariga erishish, xalqaro reytinglarga kirish, mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga, innovatsion va ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari milliy va global talablarga javob beruvchi, raqobatbardosh va barqaror ta'lim tizimini yaratishning ilmiy asoslangan va samarali modeli sifatida baholanishi mumkin.

### Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.

1. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida 20.12.2025 <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. PF-6108-son, 2020-yil 29-oktyabr. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6622>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. PF-6108-son, 2020-yil 29-oktyabr. <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.[Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023 – 128.b
6. M.M. Murtozayeva. Umumiy Pedagogika. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2024.– 128 b.
7. <https://oliygoh.uz>